Прием: организация сотрудничества-создание учителем условий для сотрудничества. Класс разбивается на 4 группы из 4-5 человек. В каждую группу даются одни и те же вопросы, распределяются между учениками. Затем ученики с 1 вопросом встречаются проверяют друг у друга ответы, дополняют. Ученики со 2 вопросом встречаются проверяют друг у друга ответы, дополняют. Ученики с 3 вопросом встречаются проверяют друг у друга ответы, дополняют. В итоге в каждой группе каждый ученик раскрывает свой вопрос (с использованием дополнений, полученных при сговоре). Получается целостное изучение новой темы.

1 вопрос: "Как взаимодействуют металлы с кислотами"

2 вопрос: "Как взаимодействуют металлы с солями"

3 вопрос: "Как взаимодействуют металлы с простыми веществами"

(Вопросы распечатаны на листочках).

Повторение темы Подгруппа азота. Этап: самостоятельное применение знаний. Прием: создание на уроке ситуации выбора и успеха - деятельность учителя состоит в том, чтобы создать каждому ученику ситуацию успеха. (возможно использование: самостоятельный выбор задания, задания разной сложности)

Вариант 1.

1. Допишите уравнения химических реакций:



Допишите уравнения осуществимых химических реакций:



2. Определите степени окисления и тип химической связи в веществах:



3. Осуществите цепочку превращений:



1,2,3. 1,2,3,4,5. Рассмотрите переход 1-2 в свете ОВР

Рассмотрите переход 1-2 в свете ОВР, переход в свете ТЭД.

4. Определите массу азотной кислоты, которая может быть получена из 4, 48 л оксида азота (IV). Ответ: 12,6 г. Определите массу осадка, который образуется при действии избытка нитрата серебра на 350 г 8,2 %-ного раствора фосфата натрия. Ответ: 83, 8 г

В заключении хотелось бы отметить, что принципы современного преподавания давно уже требуют от учителя перестать быть носителем знаний, их механическим транслятором, распределителем. Нужно ставить перед учеником проблему, чтобы он сделал для себя открытие, пусть маленькое, но свое. Это поистине задача из задач.

Литература

1. Дерябина Н.Е. “Системно-деятельностный подход к построению курса органической химии” // Химия в школе. - 2006. - N 9. - С. 15-23.

2. С.В. Ярцева “Реализация системно-деятельностного подхода при обучении химии” // Химия в школе. - 2010. – N 6. - С. 23-27.

3. Рустамова Х.Н., Курбанова А.Д., Комилов К.У., Эштурсунов Д.А. Роль информационно-коммуникационных технологии в преподавании общей и неорганической химии// Экономика и социум. 2021. №5-2. – С.1047-1056.
4. Комилов К.У., Курбанова А.Д. Case-study method for teaching general and inorganic chemistry// Academic Research in Educational Sciences. 2021. № 2(6), 436-443 betlar.
5. Atqiyayeva S.I., Komilov K.U. Developing intellectual capabilities of students in teaching chemistry// Образование и наука в XXI веке. 2021. № 3(10), 684-690 betlar.
6. Бузрукходжаев А.Н., Комилов К.У. Технология проблемного обучения на уроках химии в школе// Экономика и социум, 2022, №2(93), С. 579-583.
7. Хамзаева М., Комилов К.У. Интеграция химической технологии и географии// Экономика и социум, 2022, № 6-1 (97). С. 997-1001.
8. Комилов К.У., Аллаев Ж., Мирзарахимов А.А. Электронный учебно-методический комплекс по химии (Теоретический часть), СА Patent, 2022, С. 40-47.
9. Комилов К.У., Носирова С.Ш. Сув хавзалари гидроэкологик ҳолатини баҳолашда кимёвий усулларнинг роли / XXI аср–интеллектуал ёшлар асри мавзусидаги Республика илмий ва илмий-назарий анжуман. Тошкент. 2020. 108-110 бетлар.
10. Kurbanova A. Dj., Komilov Q.U. Kimyo o‘qitishda mobil elektron dastur. Toshkent, 2020, DGU 32889.
11. Комилов К.У. Интеграционный подход к преподаванию географии и химии// Экономика и социум, 2023, №11. С.789-795.
12. Курбанова А.Дж. Органическая химия/ учебная пособия, Т.: “Book trade 2022”, 2022. – 150 с.
13. Kurbanova A.Dj. Kimyo/ o‘quv qo‘llanma, Т.: “Book trade 2022”, 2022. – 215 b.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM RIVOJIDA TIMSS VA PIRLS XALQARO DASTURLARINING AHAMIYATI

Turgunova Durdon Rustamjon qizi

CHDPU, Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar bilan TIMSS va PIRLS xalqaro dasturlar haqida so‘z boradi. Boshlang‘ich ta‘limda xalqaro dasturlarni asosiy tamoyillari va uning muhim tamoyillari va shartlari tushuntiriladi.

Kalit so‘z: STAEM, texnologiya, muhandislik

Boshlang‘ich ta‘limning Davlat ta‘lim standarti, malaka talablari, o‘quv dasturlarida o‘zaro va boshqa ta‘lim tizimlari o‘rtasidagi integratsiyani ta‘minlash; raqobatbardosh variativ o‘quv modullarini ishlab chiqish;

Boshlang‘ich ta‘lim mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; boshlang‘ich ta‘lim maqomi, umumta‘lim fanlari bilan o‘zaro integratsiyasi va o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish;

boshlang‘ich ta‘lim mazmuni, mustaqil hayotda qo‘llash imkoniyati bo‘lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish;

ta‘lim jarayoniga milliy, umuminsoniy va ma‘naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakl, usul va vositalarini keng joriy etish;

o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta‘minlashda boshlang‘ich ta‘lim bo‘yicha sinfdan va maktabdan tashqari ta‘limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish; baholashning milliy formati va mezonlari, texnologiyalari, metodikasini yaratish;

boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish; o‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini va natijaviyligini ta‘minlashda innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish; boshlang‘ich ta‘lim moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag‘ bilan ta‘minlashning samaradorligini oshirish; erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlanishi hamda tadbirkorlik, kasanachilik faoliyatini keng joriy qilishda o‘quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlarini aniqlash;

Tendensiyalarni amalga oshirishda fanni rivojlantirishning strategik maqsadlari sifatida quyidagilar belgilab olinadi: “Umumiy o‘rta ta‘lim sifatini

oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti" onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari boshlang'ich ta'limni mehnat bozori talablari asosida modernizatsiya qilish, ijtimoiy iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish;

o'quvchilarda savodxonlik, tanqidiy, kreativ va tizimli fikrlash, mustaqil qaror qabul qila olish, o'z intellektual qobiliyatlarini namoyon eta olish va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

belgilab olingan strategik maqsadlar quyidagi vazifalarga asosan amalga oshiriladi: umumiy o'rta ta'lim barcha bosqichlarida izchil boshlang'ich ta'limni o'qitish tizimini yaratish; boshlang'ich ta'limning ilmiy metodik ta'minotini rivojlantirish; boshlang'ich ta'limning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

boshlang'ich ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

boshlang'ich ta'lim maqomini uning fundamental bilimlarning inson yaratuvchilik faoliyati bilan bog'liqligini hamda atrof-muhit va umumiy ta'lim mazmuni o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ta'minlashdagi asosiy rolga munosib ravishda o'zlashtirishga erishish;

fanlarning o'zaro integratsiyasi va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish;

kadrlarni tayyorlash, mavjud kadrlar ta'minotini modernizatsiyalash va inson potentsialidan samarali foydalanish;

malaka talablarini, shuningdek yangilangan ta'lim standartlarini joriy etish uchun egallanadigan ko'nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish;

fanning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetentsiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish;

fan bo'yicha olimpiadani tashkil etish Nizomini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, baholash va rag'batlantirish tizimini texnologiya shu jumladan dizayn, muhandislik, robototexnika, elektronika, bolalar uchun ixtiro masalalarini yechish algoritmi kabi tanlov va ko'rgazmalarini tashkil etish;

intellektual salohiyatning mehnat bozorida o'rni haqidagi madaniyatni shakllantirish; "Umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti" onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari perspektiv texnologik, zamonaviy standartlarga mos keluvchi, yo'nalishlarni tadqiq qilish va joriy etish;

o‘quvchilarda loyihalash va tadqiqot ishlari madaniyatini shakllantirish;
ta‘limning ilg‘or amaliyotini ommalashtirish va boshlang‘ich ta‘limni o‘qitishning shakllari xilma-xilligini rag‘batlantirish; amaliy jihatdan texnologiya sohasidagi bilim – texnologiyalar transferi bilan bog‘liq, keng ma‘noda kelajak avlodni yuz berishi mumkin bo‘lgan texnologik o‘zgarishlar bilan ishlashga tayyorlash. Belgilangan tendensiyalar, strategik maqsad va uni amalga oshirish natijasida kutilayotgan natijalar quyidagilardan iborat: davlat ta‘lim dasturlari tarkibiga kiruvchi texnologiya darslari o‘quvchilarda metafan, XXI asr va hayotiy ko‘nikmalarini, bitiruvchilarda nostandart sharoitlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etish, ta‘limning barcha bosqichlarida injenerlik qobiliyati va ijodkorlikni rivojlantirish hamda mustaqil hayotda zarur bo‘ladigan mehnat ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, maktabdan keyingi ta‘lim bosqichiga yoki mustaqil hayotga qadam qo‘yishda zarur bo‘ladigan bazaviy kompetensiyalar va dunyoqarashlarni shakllantiradi; boshlang‘ich ta‘limning Davlat ta‘lim standarti, malaka talablari, o‘quv dasturlari, raqobatbardosh variativ dasturlar, ilmiy metodik ta‘minoti (darslik, o‘qituvchi kitobi, ish daftari, multimedia ilovalar, didaktik materiallar va boshqa), baholashning milliy formati va mezonlari, texnologiyalari, metodikasi yaratiladi; maktabgacha ta‘lim tashkiloti, umumiy o‘rta ta‘lim, professional ta‘lim va oliy ta‘lim tizimlarida o‘qitilayotgan boshlang‘ich ta‘limning o‘zaro integratsiyasiga erishiladi; STEAM (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – muhandislik, Art – san‘at, Mathematics – matematika) ta‘limini joriy etish orqali maktab o‘quvchilarining fanlar integratsiyasiga qurilgan savodxonlik darajasini oshiradi¹;

boshlang‘ich ta‘limni o‘qitish – maktab bitiruvchilaradining ilmiy-texnik savodxonligini, ilk muhandislik ko‘nikmalarini va kompetensiyalarini shakllantirish, shu bilan birga, zamonaviy texnik tizimlar va texnologiyalardan professional darajada foydalanish, loyihalashtirish va texnik tizimlarni boshqarishni o‘zlashtirish imkonini beradi;

boshlang‘ich ta‘lim umumiy o‘rta ta‘lim tizimida asosiy integratsion mexanizm vazifasini bajaradi, tabiiy, ilmiy-texnik, texnologik, tadbirkorlik va gumanitar fanlar doirasida olgan bilimlarini meta-fan darajasida qo‘llashni o‘rgatadi va umumiy o‘rta ta‘limning amaliy jihatlarini kuchaytirishga yordam beradi. Boshlang‘ich ta‘limni o‘qitishning konseptual asoslari sifatida shuni qayd etish joizki, boshlang‘ich ta‘limni zamonaviy talablar asosida o‘rganish maktab

¹ Chemekov V.N., Krilov D.A. STEM – noviy podxod k injenernomu obrazovaniyu // Vestnik Mariyskogo gosudarstvennogo universiteta. 2015. № 12. S. 59-64.

bitiruvchilarida: "Umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti" onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari texnologiyalarni o'zgartirish jarayonida tushunish, qo'llash, nazorat qilish, mukammallashtirish va baholash; loyihalashtirish, izlanish, boshqarish kabi universal faoliyatni o'zlashtirish; qarama-qarshiliklar masalasini yechish mahoratini namoyon qilish orqali samarador va to'g'ri texnologiyalarni tanlash; nostandart fikrlash va faoliyat yuritish ko'nikmasini shakllantirish orqali yangi mahsulot, xizmatlar va mehnatga ta'sir o'tkazishning yangi uslublarini yaratish va h.k. Ta'lim jarayonida har xil kasbiy ko'nikmalarni egallash orqali mustaqil hayotda zarur bo'ladigan bo'lajak kasbni to'g'ri tanlash; mehnat qilish, yangi bilimlarni egallash, mukamallikka erishish uchun o'z ustida mustaqil ishlash va amaliy faoliyat yuritish; tez o'zgaradigan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchan, noaniq vaziyatlarda mustaqil ta'lim olishga tayyor o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boltaboyev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2002.
2. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti.: Ped.fan.dokt. ... diss. avtoref. - T.: 2007. - 37 b.
3. Dyachenko, V. K. Kollektivniy sposob obucheniya: didaktika v dialogax / V. K. Dyachenko. – M. : Narodnoye obrazovaniye, 2004.
4. Frolov A.V. Rol STEM-obrazovaniya v «novoy ekonomike» SSHA // Voprosi novoy ekonomiki. 2010. № 4 (16). S. 80-90.
5. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi: O'quv qo'llanma.- T.:№O'qituvchi, 1997. - 248b.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI STEAM XALQARO DASTURI VOSITASIDA FAOLLASHTIRISH ASOSLARI

Axmedova Gulnora Madjitovna

CHDPU, Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada STEAM xalqaro dasturi haqida so‘z boradi. Ta‘limning nisbatan yuqori bosqichlarida o‘quv rejasida ta‘lim mazmunini integrallashtirish orqali o‘quv yuklamalari hajmi qisqartiriladi.

Kalit so‘z: hamkorlik, texnologiya, ta‘lim, tarbiya

Xalqaro miqyosda o‘quvchilar kasb –hunarga yo‘naltirish innovatsion rivojlantirish, zamonaviy ta‘limni amalga oshirish bo‘yicha dunyoning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda o‘quvchilar tadqiqotchilik mahorati mezonlari, innovatsion ta‘lim muhitini yaratish muammolari, xalqaro ta‘lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda o‘quvchilarning texnologik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va robototexnikaning ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llanishi, tanqidiy fikrlash, g‘oyalar genaratsiyasi, kommunikativ, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash, kabi indikatorlar asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rin tutadi. Texnologiya ta‘lim jarayoni faoliyatini mazmunan takomillashtirish, zamonaviy va ilg‘or xorijiy tajribalarni amaliyotga keng tadbiiq etish, STEAM yondashuv asosida o‘quvchilarni kasb-hunar yo‘naltirish masalalari ilmiy muammo sifatida yuzaga chiqmoqda:

- jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liq jahon hamjamiyatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar;
- o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ilmiy jihatdan yondashuv asosida ijobiy o‘zgarishlarga olib kelayotganligi;
- ta‘lim jarayoni mazmunan isloh qilishda STEAM dasturlarning amaliyotga joriy etilayotganligi;
- fanlararo integratsiyalashgan mazmun asosida STEAM ta‘lim amaliyoti yaxlit muammo sifatida tadqiq etish.

Hozirgi kunda texnologiya darslarida barkamol shaxsni tarbiyalash, uzliksiz ta'lim jarayoniga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtma ilg'or xorijiy tajribalar bilan uyg'unlashtirilmaganligi hamda ta'lim mazmunini yangilab borish zarurati; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash orqali bolalarni individual rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va uslubiy materiallar o'quvchilar kasb-hunarga yo'naltirishda yetarli darajada ta'minlanmaganligi; o'quvchilar egallayotgan bilim va ko'nikmalarining kasbiy faoliyatda talab etiladigan ko'nikma va malakalar darajasiga muvofiq emasligi tadqiq etilayotgan muammoning dolzarbligini belgilaydi.

«STEAM – ta'lim» yondashuv ta'lim va o'qitishga qarashlarni o'zgartiradi. Amaliy qobiliyatlarga urg'u berib, o'quvchilar o'z iroda kuchi, ijodiy salohiyati, egiluvchanligini rivojlantiradi, boshqalar bilan hamkorlikka o'rganadi. Bu ko'nikma va bilimlar asosiy o'quv vazifalari, ya'ni butun ta'lim tizimi qaysi tomonga intilishini anglatadi.

Bu texnologiya bo'yicha ishlashning muhim xususiyati – aynan STEAM – loyiha ustida jamoaviy ishlash miyaning ijod, hissiyotlar uchun javob beradigan o'ng yarim sharini ishga solish imkonini beradi. Bu texnologiya bo'yicha muvaffaqiyatli loyiha ishlariga ko'plab misollar keltirish mumkin.

O'qitishning an'anaviy metodlari qanchalik muvaffaqiyatli bo'lmasin, zamonaviy reallik ta'lim (o'qitish)ning tobora yangi va samarali shakllarini izlashni talab etadi.

Butun hayoti mobaynida mustaqil o'qish ko'nikmalarini singdirish, turli darajadagi hamkorlikka o'rgatish, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – bu va boshqa ko'plab prinsiplar zamonaviy ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini tashkil qiladi.

Agarki biz o'quvchilarimizni hayotga tayyorlar ekanmiz, ularga keyinchalik baribir kundalik hayotining bir qismiga aylanadigan qurollarni qo'llashga ruxsat berishimiz kerak.

«STEAM – ta’lim» dan foydalanib ishni tashkil qilishda quyidagi asosiy pedagogik tamoyillarni hisobga olish zarur:

– *integrativlik* (ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl va metodlarini belgilaydigan o’qitish jarayoni komponentlarining o’zaro aloqadorligi nazarda tutiladi);

– *onglilik va faollik* (ma’lum va noma’lum o’rtasida muayyan mantiqiy aloqalarni belgilash, predmet va hodisalar o’rtasida sabab-oqibat aloqadorliklarni tushunishni ta’minlaydigan ta’lim oluvchining individual xususiyatlarini hisobga oladigan bilimlar bilan ishlashni nazarda tutadi);

– *ko’rgazmalilik* (qat’iy qayd qilingan ilmiy qonuniyatlarni o’z ichiga olgan axborotni ko’rgazmali namoyish etishni);

– *tizimlilik* (ta’lim oluvchilarning yoshiga bog’liq tarzda tarbiya mazmuni va shakllari o’rtasida o’zaro aloqadorlikni ta’minlaydi);

– *tushunarlilik va izchillik* (ta’lim va tarbiyaning birligini ta’minlaydi);

– *tabiatga muvofiqlilik* (bolani uning jismoniy va ma’naviy rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq tarbiyalash va o’qitishni ta’minlaydi);

– *hamkorlik* (oila, ta’lim muassasasi, jamoatchilikning ta’lim va tarbiya sohasida o’zaro hamkorligi). Loyiha ustida ishlash jarayonida o’quvchilar o’zaro hamkorlik qiladi, baholashning turli vosita (qurol)laridan foydalanadi, ya’ni universal o’quv harakatlarini egallaydi. Bunda o’quvchilar emas, balki o’quvchilar nimani bilishi va uddalashi, qanday ishlashini namoyish qiladi.

Maktab o’qituvchilari loyihalash faoliyatiga katta e’tibor qaratadi, chunki u o’quvchilarning mustaqil ishlashiga qaratilgan. Pedagog bu faoliyatni yo’naltiradi xolos, natijada, ta’lim faoliyati sifati oshadi, tizimli fikrlash rivojlanadi.

Har bitta mashg’ulotni loyihalashtirib o’qitish asosiga qurish imkonsiz ekani tushunarli, chunki bunday darslarni 40-45 daqiqalik standart vaqtga sig’dirish qiyin, ba’zi maktablarda u yoki bu loyihani amalga oshirish uchun kerakli jihozlar mavjud emas. Shu sababli ta’limning sifati va to’laqonligini ta’minlanishi uchun maktab va qo’shimcha ta’lim o’qituvchisining hamkorlik qilishi zarur. Bunda qo’shimcha ta’lim dasturlarining mazmuni ular bilan bog’lanishi mumkin bo’lgan

o'quv fanlari mazmuni bilan muvofiqligi muhim shart hisoblanadi. Shunday qilib, o'quv materialini kengaytirish uchun dars doirasidan chiqish imkoni paydo bo'ladi. Umumiy va qo'shimcha ta'limning afzalliklari aniq va ravshan. Qo'shimcha ta'lim umumiy ta'limning variativligini kuchaytirishni ta'minlaydi va o'quvchilarning maktab darslarida olingan bilimlarini amalda qo'llashlariga ko'maklashadi. Bundan tashqari, qo'shimcha ta'limning asosiy mazmuni, odatda, amaliy yo'naltirilgan bo'ladi. Ya'ni bola amaliy vazifalarni hal qilish yo'llari va yechimlarini mustaqil izlaydi, obektlar, tabiat hodisalari ustida kuzatish va tadqiqotlar vaqtida bilimlarni o'zlashtiradi. Bunday ta'lim, albatta, faqat ijodiy, bolaga o'zi uchun qiziqarli bo'lganlarga muvofiq rivojlanishning o'z yo'lini izlash sharoitlarini yaratadigan bo'lishi mumkin.

Fanlarning real hayot bilan aloqalaridan tashqari bu yondashuv o'quvchilarning ijodkorligi uchun ham yo'l ochadi. Bunday yondashuvda kichik yoshdagi o'quvchilarning loyihalash faoliyati hal qilinishi bo'lgan qator vazifalarni belgilaydi. Yagona to'g'ri yechim mavjud emas, o'quvchiga to'liq ijod erkinligi beriladi. Bunday topshiriqlar yordamida bola nafaqat g'oyalarni generatsiyalaydi, balki ularni hayotga tatbiq qiladi ham. Shunday qilib, u qo'yilgan vazifadan kelib chiqib o'z faoliyatini rejalashtirishga o'rganadi, bu unga real hayotda albatta kerak bo'ladi.

Ixtisoslashtirilgan o'qitish tizimi. Maktabdan tashqari ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning qobiliyatlari va moyilliklariga qarab amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, ularning bilim darajasi va kasbiy talablar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishdir. Maktabdan tashqari ta'lim tizimida quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

- 1. Tashxisli**
- 2. Tashkiliy.**
- 3. Ta'limiy.**
- 4. Nazorat.**

Kasb-hunarga tayyorgarlikni amalga oshirishda quyidagi tamoyillar amalga oshiriladi:

- kompetensiyaga asoslangan yondashuv;

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;

g'oyalar tamoyili (o'quvchilarni tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari, qobiliyatlari bo'yicha ajratish), kasb-hunarga tayyorlash tarkibidagi moslashuvchanlik tamoyili va boshqalar. Asosiy, ixtisoslashgan va ixtisoslashtirilgan fanlarni to'ldiruvchi vositalarni tanlash alohida o'rin tutadi. Shunday qilib, zamonaviy kasb-hunarga bo'lgan tayyorgarlikni tashkil etishga tizimli yondoshish ixtisoslashtirilgan ta'lim kontsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga va moyilligi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda yoshlarning kasb-hunarga tayyorgarligini yaratishga imkon beradi, ularning hayoti va yo'nalishini mustaqil ravishda belgilash, ongli bo'lishga tayyorlikni shakllantirishga imkon beradi. Kelajak kasbini tanlash va o'zlashtirish ijodiy tadqiqotchilik faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lib, psixologik muhim xususiyatlarini ko'rsatish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduraimova G.O. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Texnologiya" fanini o'qitishga tayyorlash yo'llari va vositalari. // *Pedagogika*. – Toshkent, 2019. – №1. – B. 20 – 28.
2. Abramova G.S. *Vozrastnaya psixologiya: Ucheb. posobiye dlya stud. vuzov*. – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 1997. – 704 s.
3. Avazboyev A.I. O'quv predmetlarini mazmunini integratsiyalash asosida mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.–T.:–2001. – 124 b.
4. Averin V.A. *Psixologiya detey i podrostkov: Uchebn. posobiye*.- 2-ye izd., pererab.-SPb.: Izd-vo Mixaylova V.A., 1998.-379s.
5. Averichev Y.P. *Trudovoye nachalo v shkole: uroki proshlogo* // *Shkola i proizvodstvo*, 1999. – №1. – S. 15–22.
6. Azixodjayeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma*. –T.: TDPU, 2003. – 174 b.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM RIVOJIDA PISA XALQARO DASTURINING O‘RNI

Artikbayeva Gulnoza Rixsiboyevna

CHDPU, Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Boshlang‘ich ta‘limda PISA xalqaro dasturi haqida so‘z boradi. Ta‘limning nisbatan yuqori bosqichlarida o‘quv rejasida ta‘lim mazmunini integrallashtirish orqali o‘quv yuklamalari hajmi qisqartiriladi.

Kalit so‘z: DTS, texnologiya, ta‘lim, tarbiya

Ta‘lim - jarayon bo‘lib, u natija va tizimdir. Ta‘lim jarayon sifatida bilimlar, ko‘nikma va malakalarning ma‘lum yig‘indisini, faoliyat va munosabatlarning tegishli tajribasini o‘zlashtirishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir. Ta‘lim natija sifatida bilimlarni, faoliyat va munosabatlar tajribasini o‘zlashtirishda erishilgan darajadir. Ta‘lim tizim sifatida davlat muassasalari va boshqarish organlarining majmuasi bo‘lib, ular doirasida insonni tarbiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Shu tariqa, ta‘lim doimo bir yo‘la tarbiyalash jarayonini ham, o‘qitish jarayonini ham ifodalaydi.

Yosh avlod haqida gap borar ekan, shaxsning kamol topishi, o‘z mavqeyini anglash va o‘zini ko‘rsatish masalalari birinchi o‘rinda turadi. Bu masalalar butun jamiyat va maxsus yaratilgan ijtimoiy institutlar va insonning o‘zi tomonidan tasodifiy ravishda ham, maqsadga muvofiq yo‘sinda ham hal qilinishi mumkin. Ta‘lim tizimida shaxsning ijtimoiylashuvi, kasbni egallashi va moslashuvi jarayonlarini maqsadga muvofiq tarzda boshqarishga ham da‘vat etilgan.

Ta‘lim deganda: shaxsning jismoniy va ma‘naviy kamol topish jarayonini, uning ongli ravishda ayrim ibratli qiyofalarga yo‘nalishi va tarix maydoniga kelib, ijtimoiy ongda malum darajada yorqin iz qoldirgan ijtimoiy namuna (masalan, Sparta jangchisi, xushaxloq ruhoniy yoki serg‘ayrat ishbilarmondek) bo‘lishi, har tomonlama barkamollikka intilish jarayonini tushunish mumkin. Ana shu tushunchaga ko‘ra, ta‘lim butun jamiyat va shaxslar hayotining ajralmas jihati sifatida namoyon bo‘ladi va so‘zning keng ma‘nodagi «tarbiya» tushunchasiga

o'xshaydi. Lekin ko'p ma'noliligi ko'rsatilmasa «ta'lim» so'zini to'liq anglab bo'lmaydi. Masalan, ta'lim deganda ma'lum hajmdagi bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tushuniladi. Ta'limga shaxsni o'qitish va kamol toptirish jarayonini tegishli yo'sinda tashkil etish sifatida qarash ham mutlaqo to'g'ridir. Bulardan tashqari, shubhasiz, ta'lim bilimlar, ko'nikma hamda malakalarni berish va o'zlashtirish bilan bog'liq faoliyat tizimi, shuningdek, ma'lum ijtimoiy institut (o'ziga xos vazifalarni bajarish uchun tuzilgan muassasalar tizimi) dir.

Ko'ramizki, ta'lim turli shakllarda namoyon bo'ladigan ko'p qirrali hodisa (daraja, jarayon, faoliyat)dir. O'quv-tarbiya jarayoni tizimining tuzilishi, ana shu jarayonning mazmuni, o'qituvchilar va o'quvchilarning faoliyati, shuningdek, amalga oshirilgan ishlarning natijasi mazkur tizim jamiyatning qanday tarixiy tipiga mansubligiga bog'liqdir. Mana shularning hammasini hisobga olib, quyidagilarni aytish o'rinlidir: ta'lim - nisbatan mustaqil tizim bo'lib, uning vazifalari jamiyat a'zolarini muntazam ravishda o'qitish va tarbiyalash orqali ularni ma'lum boyliklar, ko'nikma va malakalar hamda axloq normalari bilan qurollantirishdir. Ana shunday o'qitish va tarbiyalashning mazmunini pirovard natijada mazkur jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimi hamda moddiy-texnik taraqqiyotining darajasi belgilaydi.

Endilikda har bir xalqning faqat o'z milliy madaniyati asosida o'qishi va tarbiyalanishi yetarli emasligi, u jahon madaniyati boyliklarini ham anglashi zarurligi to'g'risidagi fikrlar tasdiqlanmoqda. Bilimdon kishilarni tarbiyalashdek an'anaviy vazifa o'rniga atroflicha fikr yuritadigan ijodkor kishilarni kamolga yetkazish vazifasi olg'a surilmoqda. Ilgari ma'lumotlilik darajasi o'rganilgan qoidalar, tahlil qilingan asarlar, yodlangan she'rlarning soni va bir xil masalalarni yechish ko'nikmasi bilan belgilangan bo'lsa, hozirgi kunda bu daraja miqyosi kengaydi. Eng muhim masalalarni qo'ya bilish har qanday ishga ijodiy yondashish kabi xislatlar ma'lumotlilik darajasini ko'rsatadi.

Avvalgi vaqtlarda o'quvchilarni axborotlardan xabardor qilingan bo'lsa, endi ularda hayotni o'zgartirish, uni yaxshi tomonga burish ko'nikmalari va

qobiliyatlarini shakllantirishga jiddiy ahamiyat berish zarur. Eng muhimi, butun tarbiyaviy jarayonni insonga qaratishdir. Ta'lim insonni bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasligi, balki uni shaxs sifatida kamol toptirishi va takomillashtirishi ham kerak. Boshqacha aytganda, jamiyatda ta'limni insonparvarlashtirish g'oyalari tobora keng yoyilmoqda. Shubhasizki, jamiyat va maktabni insonparvarlashtirish muammosi ta'limning og'zaki axborot usulini unumli, yaratuvchilik usuliga aylantirish bilangina hal bo'lmaydi. Mazkur jarayonning eng muhim yo'nalishi ta'lim mazmunini insonparvar qilishdir. Bu tadbir, birinchidan, shaxsda madaniyatni shakllantirishda fanlarning rolini oshirishdan, xalq milliy madaniyatining barqaror boyliklarini tushunishdan, ikkinchidan, tabiiy-ilmiy va texnika fanlarini ekologik hamda ijtimoiy ahamiyatli jihatlar bilan boyitishdan iboratdir.

Shunga ko'ra ta'lim jarayonining asosiy natijalari aqliy, huquqiy fuqarolik, kommunikativlik, axborotli va tafakkurning boshqa yo'nalishlarida chuqur mahoratga ega bo'lish imkonini berishi lozim. Bunda ta'lim mazmunida muhim o'rinni o'zaro fikr almashishga imkon beradigan o'quv yuklamalari egallashi zarur. Jumladan, informatika va hisoblash texnikasi asoslari, xorijiy tillar, ona tili, barcha millatlarga mansub madaniy tushunchalarni egallash imkonini beradigan ma'naviyat asoslari, o'quvchining tafakkur tarzini rivojlantiradigan matematika va davlat huquqi asoslari, shuningdek, tabiiy fanlarning mazmunini boyitish, adekvat tushunchalarni uyg'unlashtirish, ya'ni integrallashgan ta'lim mazmunini belgilash maqsadga muvofiqdir.

Umumiy o'rta ta'lim mazmunini modernizatsiyalash strategiyasi ta'lim mazmunini quyidagilar asosida belgilashni talab qilmoqda:

1. O'quvchilarga taqdim qilinadigan yangi bilimlarni, ta'lim mazmunida muhim o'rin tutmagan ikkinchi darajali bo'lgan tushunchalarni o'quv dasturlari mazmuniga kiritishga yo'l qo'ymaslik, o'zaro bir-birini takrorlaydigan tushunchalarni va o'quv materiallarini dastur hamda darsliklarda uyg'un tarzda ifodalash, o'quv rejasida o'quv yuklamasini ratsional ifodalashga erishish.

Barcha o'quv predmetlari mazmuniga kiritilgan bilim hamda tushunchalar, o'quvchining maktabdan keyingi hayoti, o'qishi va ish faoliyatida kerak bo'lishi, yaroqliligini ta'minlashga erishish, buning uchun pedagogik prognostikaning imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur. Umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun tuziladigan yangi o'quv dasturlari DTS talablariga mos bo'lishi, shu bilan bir qatorda o'quvchilarning salomatligini muhofaza qilish maqsadida o'quvchini mantiqiy mushohada qilishga undovchi o'quv topshiriqlari va o'quv materiallarini belgilab berishga asos bo'lishi kerak. O'quv dasturining kirish qismida umumiy o'rta ta'lim mazmunini belgilashga asos bo'la oladigan nazariy didaktik qarashlar, yondashuvlar, mezonlar, o'quv jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar bayonidan iborat bo'lishi kerak. Bunda o'quvchilarga muayyan o'quv fanidan taqdim etiladigan muayyan nazariy bilimlar mavzular shaklida bayon qilinadi. Ta'lim jarayonini o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirish ta'lim mazmunini belgilashda ustuvor maqsad bo'lishi zarur. Ta'lim mazmunini belgilashda o'qitish texnologiyasi va o'quvchi tomonidan bajariladigan ta'limiy topshiriqlarni aniq rejalashtirish talab etiladi. Turli yo'nalishdagi amaliy topshiriqlar hamda interfaol ish turlarini kengaytirishga imkon yaratish zaruriyati vujudga kelmoqda. Taqdim etiladigan o'quv materiallari o'zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlar, mentaliteti, ma'naviy-madaniy hayoti, mashg'ulotlari, yashash hududi bilan chambarchas bog'langan, ularni o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantira oladigan, shu bilan qatorda o'quvchining ijtimoiy tajribasiga kiradigan bo'lishi lozim. Shuningdek, o'quv qo'llanmalari tarkibida beriladigan ta'limiy materiallar, savol va topshiriqlar, mustaqil ishlar, uy vazifalari, o'quvchining individual bilim olishi, voqea-hodisalarni tahlil qilishi, egallagan bilimlarini amalda qo'llashi uchun qulay bo'lishi kerak. Mustaqil ta'lim olish va ma'lumotlarni tahlil qilish amaliy ko'nikmalarini shakllantiruvchi topshiriqlar ko'lamini kengaytirish orqali ta'lim mazmunini maqsadga muvofiq tarzda belgilash imkoniyati vujudga keladi. Bu esa dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyat ko'rsatishlariga imkoniyat yaratadi. Ularning individualliklarini ta'minlaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari

o'quv dasturlarini o'quvchini pedagogik qo'llab- quvvatlash nuqtai nazaridan yondashgan holda yaratish imkonini beradi. Ta'limning nisbatan yuqori bosqichlarida o'quv rejasida ta'lim mazmunini integrallashtirish orqali o'quv yuklamalari hajmi qisqartiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2006. – 46 b.
2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish. Monografiya. -T.: Fan nashriyoti, 2004. -130 b.
3. Mamatov D.N. Elektron axborot ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish. Monografiya. –T: Navro'z, 2017. – 160 b.
4. Mangal S.K., Fundamentals of Educational Technology, Ludhiana: Tandon Publications, 1994.
5. Markova A.S. Texnologiya massovogo testirovaniya studentov: Uchebnoye posobiye. – M., 1996.
6. Nazarova T.S. Pedagogicheskiye texnologii: noviy etap evolyusii // Pedagogika, 1997. - № 3 – S.20-35
7. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. –Qarshi: Nasaf, 2000. – 79 b.
8. Poddyakov A.N. Metodologicheskiye osnovi izucheniya i razvitiya issledovatel'skoy deyatel'nosti // Shkolniye texnologii. 2006. №3. S. 85-89.
9. Parmonov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida badiiy konstruksiyalash elementlariga doir bilim va ko'nikmalarni shakllantirish: Dis. ... ped. fan. nom. - Toshkent: TDPU, 2006. - 160 b.

MUNDARIJA CONTENTS

1. Inoyatova Feruza Jasur qizi BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNING AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARI.....	5
2. Курбанова А.Дж., Сейдалиева А. Дж. СИСТЕМНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНЫЙ ПОДХОД В ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ.....	11
3. Ubaydullayeva Dildora Baxodir qizi BOSHLANG‘ICH TA‘LIM METODIKASINING ZAMONAVIY KOMPYUTERLI TEKNOLOGIYALARI.....	19
4. Soliyeva Madinabonu Murodjon qizi IV AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIGA FIZIKADAN LABORATORIYA ISHLARINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY TAMOYILLARI.....	24
5. Курбанова А.Дж., Нажимова Д.Ш МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ ХИМИИ ПО МОДУЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ.....	35
6. Курбанова А.Дж., Сейдалиева А. Дж. ПРОВЕДЕНИЕ УРОКОВ ХИМИИ НА ОСНОВЕ СИСТЕМНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНОГО ПОДХОДА.....	43
7. Turgunova Durdona Rustamjon qizi BOSHLANG‘ICH TA‘LIM RIVOJIDA TIMSS VA PIRLS XALQARO DASTURLARINING AHAMIYATI.....	49
8. Axmedova Gulnora Madjitovna BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINI STEAM XALQARO DASTURI VOSITASIDA FAOLLASHTIRISH ASOSLARI	53
9. Artikbayeva Gulnoza Rixsiboyevna BOSHLANG‘ICH TA‘LIM RIVOJIDA PISA XALQARO DASTURINING O‘RNI.....	58



AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
international scientific journal
4-son

Nashr qilingan sana: 29.06.2024.
Shrift: "Times New Roman".

“ACADEMIC JOURNAL” MCHJ
Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog‘iston ko‘chasi, 116/6.
www.ajeruz.com, info@ajeruz.com, +998950457172